

PEDAGOGIK MAHORAT

MS
2022



Baxtiyor ADIZOV. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy faollikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	7
Ширинбой ОЛИМОВ, Юлдуз САИДОВА. Талабалар маънавиятини ривожлантиришнинг йўналишлари	10
Bolta XODJAYEV. Shaxs ijtimoiylashuvida fuqarolik madaniyati muhim pedagogik omil sifatida	16
Нодира МУСАЕВА, Нафиса МУСАЕВА. Разработка теоретических основ технологии неразрывности обучения основанной на педагогической таксономии	20
Baxshillo UMAROV. Yoshlarda yangicha dunyoqarashni shakllantirishda sharq allomalari merosidan foydalanish imkoniyatlari	24
Кобилжон АБДУЛЛАЕВ. Приоритетные направления государственной образовательной политики в сфере дошкольного образования.....	28
Shabon FARMONOVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari	31
Гулия ХАБИБОВА. Функция махаллы в современном обществе Узбекистана	36
O'lmas QURBONOVA. Pedagogik fikrlar taraqqiyotining ayrim masalalari.....	39
Manzura OCHILOVA. O'quvchilarning ma'naviy barkamol shaxs bo'lib shakllanishida al- Buxoriy ta'limotining o'rni	42
Bobomurod JURAYEV. Abushakur Balxiyning "Ofarinnoma" asarida ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari.....	45
Gulchehra IZBULLAYEVA. Didaktik asarlarda do'stlik munosabati va uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni.....	49
Nargiza BAXRIYEVA. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanganlik dinamikasi	54
Dildora TOSHEVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ekologik tarbiyalashda tabiiy fanining o'rni va ahamiyati.....	59
Olimjon AHMADOV. Taraqqiyparvarlarning Buxoroda ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilishga qaratilgan g'oya va qarashlari	63
Oybek ORTIQOV. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	66
Matluba XOJIYEVA. Abu Rayhon Beruniyning axloqiy qarashlari	70
Nigina ISMATOVA. Yoshlarni oilada ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish usul va vositalari	76
Lola ELIBOYEVA. Bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari	80
Feruza RAMAZONOVA. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda kasbiy e'tiqod tuyg'usini shakllantirish imkoniyatlari	86
Ma'rifat UMUROVA. Bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda milliy merosning o'rni	89
Nilufar RAXIMOVA. Tasavvuf ta'limotining tarbiyaviy ahamiyati.....	93
Mirjon AMONOV. O'quvchilarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning omillari va mezonlari.....	96

TASAVVUF TA'LIMOTINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Tasavvufning tub mohiyati inson qalbi va ruhiyatini, axloqini poklash, shaxsiy hayotda halol yashash, zahiran va botinan pok bo'lish, pok qalb va ruh kuchi bilan Alloh visoliga yetishga kishilarni targ'ibot-tashviqot etishdan iboratdir.

Tayanch so'zlar: Tasavvuf, qalb, ruh, jon, hadis, ta'limot, tariqat, haqiqat, shariat, ma'rifat, zohiriy, botiniy, tariq, ilm, murshid.

Суть суфизма в том, чтобы очищать человеческое сердце и душу, нравы, жить честно в частной жизни, быть чистыми внешне и внутренне, а также побуждать людей к достижению видения Аллаха силой чистого сердца и души.

Ключевые слова: Суфизм, сердце, душа, душа, хадис, учение, учение, истина, шариат, просветление, внешнее, внутреннее, тарик, знание, муршид.

The essence of Sufism is to purify the human heart and soul, morals, to live honestly in private life, to be pure outwardly and inwardly, and to encourage people to attain the vision of Allah with the power of a pure heart and soul.

Keywords: Sufism, heart, soul, soul, hadith, doctrine, teachings, truth, sharia, enlightenment, outward, inward, knowledge.

Qur'on va Hadislarning mohiyatini ochib berishga, ilohiy ilmlar bilan dunyoviy ilmlarni o'zaro bog'lashga intilgan insonparvar va xalqsevar ta'limot sifatida VIII asr o'rtalaridan boshlab o'z nazariyasi va amaliyoti, ilm sifatida shakllandi va rivojlandi.

Birinchidan, tasavvuf ta'limot sifatida g'oyat murakkab va ko'pqirrali ijtimoiy-ma'anaviy hodisa bo'lib, uning murakkabligi va ko'pqirraliligi tasavvufiy yo'nalishlarning turli tumanligidan, metod-uslublarining rang-barangligida, bilish ob'ektlarining tadqiqot va targ'ibot qilgan masalalar doirasining qamrovi juda kengligi, xilma-xilligi va teranligida ifodalanadi.

Ikkinchidan, mazmunan va mohiyatan inson qalbini poklashga qaratilgani, jaholat va xudbinlikka qarshi bo'lgani, mehru shafqat, himmat va mardlik ko'rsatishni targ'ibot etgani, Allohga bo'lgan ishqni birinchi o'ringa chiqargani, ilohiyat yo'lida dunyodan yuz o'girishini, jismini shu yo'lda qurbon etishni da'vat etgani sababli ham tasavvuf azal-azaldan ilmu ijod ahliga yaqin bo'lgan.

Tasavvuf ta'limotining mazmun va mohiyatini tushunib etmoq uchun olimu fuzalolarning tasavvufga bergan ta'riflaridan xabardor bo'lmoq lozim. Ilmiy va diniy adabiyotlarda tasavvuf tushunchasi turlicha ta'riflanadi:

1. Tasavvuf g'oyalarining ilm sifatida ta'riflanishi: tasavvuf – insonning ruhiyati va ma'naviy olamidagi jarayon bo'lib, uni aqliy hamda axloqiy kamolotga etkazuvchi ilmdir. Bunda bir qator fikrlar ilgari suriladi.

Xususan, "Tasavvuf va tariqat" masalasi o'tmishdagi kabi bugungi kunda ham ko'p bahslarga sabab bo'lgan mavzulardan biridir. Uning o'ziga xos ilm sohasi, amaliy, nazariy, ruhiy va tajribaviy xususiyatlari mavjud. Jumladan, turk olimlaridan Komil Yilmaz bu haqida shunday fikr bildiradi:

1) tasavvuf – tajriba orqali his qilib, yashab, anglashiladigan xos ilmdir;

2) tasavvuf amalda qo'llanadigan bir ilm bo'lgandan murshid yoki shayx (ustoz) xuzurida va uning tarbiyasi ostida o'rganiladi;

3) tasavvuf ilmining mavzusi ma'rifotullohdur;

2. Tasavvuf g'oyalarining harakat sifatida ta'riflanishi: "Tasavvuf haqiqatlarni qabul etmoq, insonlarning qo'llaridagi narsalarga ko'ngil bog'lamaslikdir" (Ma'ruf Karhiy); "Tasavvuf go'zal axloqdir" (Sirri Saqatiy); "Tasavvuf amr va nahy ostida sabr qilmoqdir" (Abu Amr Ismoil ibn Junaid); "Tasavvuf aqlingdagi barcha o'y – harakatlarni tark etishning, qo'lingdagi narsalarni ehson qilishning va senga ro'para kelgan voqea – hodisalardan oh-voh chekmasligingdir" (Abu Said ibn Abil Hayir); "Tasavvuf batamom azobdan iborat" Demak, tasavvuf o'z jozibasi, ahamiyati bilan muhimdir. U tarbiyaviy jihatdan insonning ichki dunyosini teranlashtirish va poklashga taalluqli bo'lgani uchun muhimdir. Bu ta'riflarda u yoki bu darajada juz'iy tafovutlar mavjud bo'lsada, tasavvufning mohiyati, uning ma'naviy ahamiyati atroflicha ifodalanadi.

Demak, bu dunyo bor ekan, insoniyat bilan birga tasavvuf ham bor.

3. Tasavvuf g'oyalarining "tariq" ya'ni "yo'l" sifatida ta'riflanishi bunday ulug' mutafakkir Alisher Navoiy qalamiga mansubdir. Uning "Favoyid ul-kibor" asarida quyidagicha fikr bayon qilinadi: "Xilofu ixtilofi bo'lmagan zuhd, toat emas, riyosiz, sof tavhidga eltuvchi yo'l". Mahmud As'ad Jo'shon ta'rifiga ko'ra "Tasavvuf favqulodda yuksak darajadagi yo'l bo'lib, unda shaxs barkamol inson darajasiga ko'tariladi" yoki "dinimizning o'zagi, negizi va uning haqiqiy ma'nosi, komil inson bo'lish yo'lidir" degan ma'noni bildiradi.

4. Yuqoridagi ta'riflarni umumlashtirib, tasavvufga diniy-pedagogik ta'limot sifatida qarab, quyidagicha xulosa chiqarish Tasavvuf g'oyalarining "ta'limot" sifatida ta'riflanishi Husayn Voiz Koshifiy tasavvuf tushunchasini quyidagicha talqin etadi: "**t**" – **tajriba, ya'ni, ortiqcha narsalardan holi bo'lish (qolish), behuda ishlardan chetlanish, "s"** – **sidqu safo, "v"** – **vafo, "f"** – **fano.**

"Tasavvuf – diniy-pedagogik xususiyatga ega bo'lgan ilm-ta'limot bo'lib, insonning ma'naviy kamolotiga, barkamol inson bo'lishiga oid diniy –pedagogik bilimlarni (nafs tarbiyasi, ruh tarbiyasi, aqliy tarbiya) o'z ichiga oladi va insonni o'z-o'zini boshqarishga o'rgatadi".

Bu g'oya yosh avlodning ma'nan yetuk, jismonan salomat, barkamol inson bo'lib yetishishida ustuvor vositalardan bo'lib hisoblanadi.

Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, borliqdagi hamma mavjudotda, jumladan, insonda ham ilohiy zarralar mavjud.

Tasavvufning nomlaridan biri "ruhiy tarbiya" bo'lgani ham shundan.

Tasavvufda "qalb", "ruh", "aql" va "nafs" deb ataladigan ma'nolarini aniq bilib olish katta ahamiyat kasb etadi. Bu narsalarning har birining haqiqatini anglab yetish va ularni bir-biridan ajratib olish ham oson ish emas.

Ushbu to'rt narsa haqida qisqacha ma'lumot bilib olishimiz tasavvufni yaxshiroq anglashimizga yordam beradi.

1. Qalb.

"Qalb" lafzi ikki xil ma'noda ishlatiladi:

Birinchisi – insonning chap ko'krigiga joylashgan, qonus shaklidagi maxsus jism. Uni bizning tilimizda "yurak" deyiladi. Tasavvufda "qalb" deyilganda o'sha a'zo ko'zda tutilmaydi.

Ikkinchisi – Robboniy, ruhoniylar va latifiy narsa bo'lib, uning avvalgi qalbga bog'liqligi mavjud. Ularning orasidagi aloqa xuddi sifatning sifatalangan narsa bilan bo'lgan aloqasiga o'xshaydi. Ana o'sha latifiy narsa insonning haqiqatidir.

2. Ruh.

Bu lafz ham xuddi "qalb" lafzi kabi ikki xil ma'noni ifoda etadi. Birinchisi – jismoniy qalb ichidagi latifiy jism bo'lib, asablar orqali badanning barcha taraflariga tarqaladi. Tabiblar ruh va unga bog'liq narsalar haqida so'z yuritganlarida aynan ana o'sha ruh haqida gapirgan bo'ladilar.

Mazkur ruh bilan tasavvufning aloqasi yo'q. Tasavvufda muolaja qilinadigan ruh biluvchi latifiy narsadir. Uning haqiqatini Alloh taolodan o'zga hech kim bilmaydi. Ruh, uning mohiyati va unga tegishli boshqa narsalar Alloh taoloning ishi, bandaning ishi emas. Banda qanchalik maqtanmasin, ilmi ozdir.

Insonning hamma narsasi cheklangan. Jumladan, aqli, idroki ham mahduddir. U aqli, idroki doirasidagi ishlar ila shug'ullanib, undan tashqaridagi narsalar xususida behuda bosh qotirmaslik kerak.

3. **Nafs** Bu lafs ham bir necha ma'nolarida ishlatiladi. Nafs- moddiy va ma'naviy ma'nolarida bo'lib, biri ikkinchisi bilan chambarchas bog'liqlikdir.

Moddiy ma'noda nafs tanadagi latifiy bir jism bo'lib, tananing barcha moddiy ehtiyojlarini nazorat qilib, boshqarib turadi. Uning bu ishidagi asosiy quroli talab g'azab va shahvatdir.

4. **Aql.** Bu lafs ham turli ma'nolarda ishlatiladigan lafslardan. Tasavvufda o'sha ma'nolarda ikkitasi ishlatiladi. Birinchi – narsalarning haqiqatini idrok qilib bo'lib, ilmning suratidan iborat bo'ladi. Ikkinchisi – ilmlarni idrok etuvchi bilmdir.

5. **Tasavvuf tahziybi** axloqni – axloqni sayqallashni yo'lga qo'yadi. Bunday mo'min – musulmon bandaning axloqiy Qur'oni Karim va hadisi sharif ta'limotlari asosida qandoq bo'lishi kerakligi o'rgatiladi va uni tadbiq qilish yo'lga qo'yiladi. Zotan, bu amal har bir mo'min musulmon uchun farzdir. O'sha farz amalni yo'lga qo'yish aynan tasavvuf orqali joriy etiladi.

6. Tasavvuf tazkiyatun – nafsni – nafsni poklashni ham yo'lga qo'yadi. Bu ham har bir mo'min uchun farz amal bo'lib, uning haqiqatiga va tatboqoti tasavvuf orqali bo'ladi.

7. Tasavvuf tavba, istig'for, duo, zuhd, taqvo, vara va shunga o'xshash ma'nolarning haqiqatini anlab yetishga yordam beradi va ularni hayotga qandoq tatbiq qilish bo'yicha darslar va ko'rgazmali tajribalar olib boradi.

Tasavvuf uch oqimga bo'lingan.

Birinchi oqimning mashhur nazariyotchilari Zayniddin Muxammad Imom G'azzoliy (1058-1111) va Axmad Yassaviylardir. G'azzoliy inson kamolga yetishi, Xudo «vasliga» erishishi uchun ma'lum shartlarni bajarmog'i lozimligini ta'kidlaydi.

Ikkinchi oqim Naqshbandiya ta'limoti bilan bog'likdir. Bu oqim XIII asr oxirlarida shakllanib, XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda keng rivojlanadi.

Uchinchi oqim- Kubraviya tariqatidir.

Aytilganlarga muvofiq bu uch oqim tegishli, Yassaviya, Nakshbandiya, Kubraviya oqimlari deb ataladi.

Tasavvufning Turon zaminda paydo bo'lib, keyinchalik butun islom dunyosida keng tarqalgan bu uch tariqatdan birinchisi Xoja Axmad Yassaviy hazratlari nomi bilan bog'lik. Shuning uchun bu oqim Yassaviya tariqati deb ataladi.

XII asrdan keyin bu tariqat butun Turkiston hududida keng tarqaladi.

Yassaviya ta'limoti bo'yicha, nodonlik tufayli xayotda savodsizlik, diyonatsizlik, ota-ona va ustozlarga hurmatsizlik, ma'naviy qashshoklik, yovuzlik, nodonlik, razolat hukm surgan joyda, ma'rifat bo'lmagan o'lkada inqirozga yuz tutiladi.

Yassaviy qarashlarida islomni tasdiq etish g'oyasi markaziy o'rinni egallaydi. Odam Alloxning eng go'zal va mukammal ijodi, shuning uchun uni e'zozlash, ardoqlash lozim.

Yassaviy kishilarni adolatsizlikdan himoya qilish g'oyasini targ'ib etadi. Axmad Yassaviy turkiyzabon xalqlarning o'ziga xos tasavvuf qoidalarini yaratdi. Bu tariqatning eng asosiy fazilati-uning xalqchilligidir. Unda ham Allox, ham inson madh etiladi.

Axmad Yassaviyning «Devoni hikmat» asarida insonni qadrlash, uni adolatsizlikdan, zulmdan himoya etishga, komillik va mukammallikka da'vat etiladi. Yassaviya tarikatida diniy-axlokiy, falsafiy g'oyalar behisobdir. Jumladan, unda ariq ochib, ikki tup daraxt ko'kartiring, qo'lingizdan kelsa, odamlarni ilm-ma'rifat, odob-axloqka o'rgating, masjid, madrasa ko'ring, farzandlaringizni mo'min-qobil qilib tarbiyalang, ezgulikka o'rgating deyiladi.

Tariqat bu dunyo qusurlarini insonga yuqtirmaslik, uning sofliги va musaffoligi g'oyasini olg'a suradi.

Axmad Yassaviy hikmatlarida poklik, halollik, mexr-shafqat, o'z kuchi, peshona teri va halol mehnati bilan kun kechirish, g'ayri insoniy ishlarga nafrat bilan qarash, insoniy soflikni saqlashga intilish behad darajada sharaflanadi. Yassaviya tariqati g'oyalari va asosiy qoidalari Xoja Axmad Yassaviyning izdoshlari Sulaymon Bokirg'oni va Abdulxolik Gijduvoni tomonidan rivojlantirildi.

Abduxoliq Gijduvoni Axmad Yassaviy yo'lini davom ettirib, uning ta'limotini ijodiy boyitdi. U o'zining farzandi uchun maxsus yozilgan «Vasiyatnoma»sida o'g'liga juda ko'p maslahatlarni aytib o'tadi. CHunonchi, shuhrat talab bo'lma, kam gapir, kam ye, oz uxla, hamisha halol va pok yasha, halol ye, har bir kishiga mexr-shafqat ko'zi bilan boq. Mexribon bo'l, hech kimni o'zingdan past hisoblab, uni taxqir etma, birovdan aslo biror narsa ta'ma qilma, degan o'gitlari hozirgi zamon yoshlari uchun ham asosiy yo'l-yo'riqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mahmud A'sad Jo'shon. Islom, tasavvuf va ahloq. Istiqlol. 2000 yil.
2. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. Istiqlol. 1999 yil.
3. Xusayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati. Fors - tojik tilidan N.Komilov tarjimai. – Toshkent. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.
4. Очилова М. О., Эргашева Г. Б. Основы организации самостоятельной работы учащихся //Молодой ученый. – 2014. – №. 8. – С. 852-854.
5. Очилова М. О. Литература народов среднеазиатских ханств XIX века и возможности их использования для формирования патриотизма у молодёжи //ББК 74.48 Р 76. – С. 204.
6. Очилова М. О. Взгляды Агахи, Ахмада Дониша и Фазли Намангани на воспитание подрастающего поколения //Вестник науки и образования. – 2021. – №. 3-2 (106). – С. 44-46.
7. Азимова Н. Э., Насимова З.И. Важные особенности человеческого образования в семье //Academy. – 2020. – №. 5 (56).
8. Рахимова Н.А. Роль гуманистических принципов в системе образования Узбекистана //Вестник науки и образования. – 2021. – №. 3-2 (106). – С. 53-55.
9. Очилова М.О., Рахимова Н.А., Курбанова Х.И. Приоритетные направления повышения эффективности преподавания модуля " роль национальных ценностей в формировании духовности молодежи в семье" //Поколение будущего: взгляд молодых ученых-2021. – 2021. – С. 369-373.